



SO'Z TURKUMLARINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYAVIY YONDASHUVDAN FOYDALANISH

G'aniyeva Shodiya Azizovna

*FarDU Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
(DSc)*

Abdullayeva Nodiraxon Mamaro'zi qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiyaviy yondashuvning ahamiyati, xususan ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatish jarayonidagi o'rni yoritiladi. Integratsiya o'quvchilarda tizimli bilim, tahliliy fikrlash va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" fanlarining uzviy bog'liqligi misolida, darslikdagi bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, matn bilan ishlash va kontekstual tahlil kabi mashqlar integrativ o'qitishning samaradorligini namoyon etadi.

Аннотация: В статье рассматривается значение междисциплинарного интегративного подхода в современном образовании, в частности, его роль в процессе обучения глагольной фразеологии на уроках родного языка. Научно доказано, что интеграция развивает у учащихся системные знания, аналитическое мышление и речевую грамотность. На примере неразрывной связи предметов «Родной язык» и «Читательная грамотность» показана эффективность интегративного обучения, что подтверждается упражнениями учебника по причастным и непереходным глаголам, работе с текстом и контекстному анализу.

Abstract: The article highlights the importance of an interdisciplinary integrative approach in modern education, in particular its role in the process of teaching verb phraseology in native language lessons. It is scientifically proven that integration develops students' systematic knowledge, analytical thinking, and speech competence. The example of the inextricable link between the subjects "Native Language" and "Reading Literacy" demonstrates the effectiveness of integrative teaching, as demonstrated by exercises in the textbook on participial and intransitive verbs, working with text, and contextual analysis.

Kalit so'zlar: Fanlararo integratsiya, integrativ yondashuv, fe'l so'z turkumi, grammatik ko'nikmalar, o'qish savodxonligi, matn bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

Ключевые слова: Междисциплинарная интеграция, интегративный подход, глагольная фразеология, грамматические навыки, грамотность чтения, работа с текстом, коммуникативная компетентность, образовательная эффективность.



Keywords: *Interdisciplinary integration, integrative approach, verb phraseology, grammatical skills, reading literacy, working with text, communicative competence, educational effectiveness.*

KIRISH

“Hozirgi zamon ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaviy yondashuv muhim o’rin egallamoqda. Bu yondashuv orqali o’quvchilarda chuqur va kompleks bilimlar shakllantiriladi, ular o’zaro bog’liq bilimlarni uyg’un holda qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Fanlararo integratsiya, ayniqsa, ona tili ta’limida, tilning turli birliklarini, jumladan, fe’l so’z turkumini o’rgatishda keng qo’llanilishi mumkin. Integrativ yondashuv o’quvchilarda har bir hodisani kengroq nuqtai nazardan ko’rish, bilimlararo bog’liqlikni anglash, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, fe’l so’z turkumi kabi murakkab va ko’p qirrali mavzularni o’rganishda integratsiyaviy metodlar o’quvchilar bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Fe’lni o’rganish orqali o’quvchilar nafaqat grammatik qoidalarini o’zlashtiradilar, balki nutq faoliyatlarini rivojlantiradilar, muloqot madaniyatini mustahkamlaydilar. Shu bois, fanlararo yondashuv zamonaviy ta’lim talablariga to’liq javob beradi va o’z-o’zini rivojlantiruvchi o’quvchini shakllantirishga xizmat qiladi”⁴⁶.

O’zbek tilshunosligida fe’l so’z turkumi tilning asosiy va markaziy birliklaridan biri hisoblanadi. Fe’l harakat, holat, jarayon va mavjudlikni ifodalab, tilning leksik va grammatik tizimida muhim o’rin egallaydi. Fe’l so’z turkumining o’rgatilishi o’quvchilarda tahliliy fikrlashni, grammatik sezgirlikni va nutqiy aniqlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, fe’l o’qitilishi ta’lim tizimida alohida dolzarb mavzu hisoblanadi.

“Fe’l ta’lim jarayonida o’quvchilarning grammatik bilimlarini shakllantirish va ularni mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi. Gap tuzilmasining asosini tashkil etadigan fe’l o’quvchilarning to’g’ri va mantiqli nutq qurish ko’nikmalarini rivojlantirishda beqiyos rol o’ynaydi. Fe’lni o’rganish orqali o’quvchilar harakat va holatlarning ifodalanishini, zamon va shaxs munosabatlarini anglay oladilar, bu esa ularning muloqot qobiliyatini kuchaytiradi. Ta’limda fe’lni o’rganishga alohida e’tibor qaratilishi o’quvchilarning tahliliy, solishtiruvchan va umumlashtiruvchi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Integrativ yondashuv asosida fe’l o’rgatilganda esa o’quvchilar uni boshqa fanlar kontekstida ham o’zlashtiradilar, bu esa bilimlarning mustahkamligini ta’minlaydi. Fe’l o’rgatilishi nafaqat grammatik qoidalarini tushuntirishni, balki ularni amaliy faoliyatda qo’llashni ham ko’zda tutadi. Shu jihatdan fe’l ta’lim jarayonida ko’plab fanlar va ko’nikmalarni bog’lovchi markaziy birlik sifatida qaraladi”⁴⁷.

⁴⁶ "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish" – Mualliflar: Sapayeva, Urazova.

⁴⁷ Azimova M., Yo’ldoshev A. Ona tili va o’qish savodxonligi: Boshlang’ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti, 2019.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fanlararo integratsiya bo'yicha ilmiy manbalar ta'lim jarayonida turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchilarda kompleks bilim, tahliliy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishini ta'kidlaydi. Sapayeva va Urazova tomonidan yaratilgan "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish" asarida integrativ yondashuvning nazariy asoslari va uning o'quvchi faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Azimova va Yo'ldoshevning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi esa fe'lning grammatik va nutqiy ahamiyatini ochib beradi hamda uni matn asosida o'rgatish metodlarini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fe'lni integratsiya asosida o'rganish o'quvchilarga grammatik qoidalarni ongli tushunish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va til birliklarini real kontekstda qo'llash imkonini beradi. Integrativ yondashuvning samaradorligi aynan "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" darslari misolida o'z isbotini topgan.

Maqola metodologiyasi integrativ-pedagogik yondashuv, kontekstual tahlil va kompetensiyaviy ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Fe'l so'z turkumini o'rgatishda boshqa fanlar – o'qish savodxonligi, tabiatshunoslik, texnologiya va badiiy matnlar mazmuni bilan bog'lash orqali bilimlararo aloqadorlik ta'minlanadi.

Kontekstual tahlil usuli 3-sinf darsligidagi 87-89-mashqlar misolida qo'llanib, o'quvchilarning she'r, hikoya va matnlardagi fe'llarni aniqlash, ularning vazifasini tushunish va semantik bog'lanishlarni topish jarayonini o'rganishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarning grammatik sezgirliги, matnni anglash, nutq qurish va fe'llarni amaliy nutqda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ona tili va O'qish savodxonligi fanlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan fanlar hisoblanadi. O'qish savodxonligi darslarida bolalar asosan matnlar bilan ishlaydilar. Ularning asosiy e'tiborlari matnning tahlili, mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Matn esa tilshunoslikning ajralmas birligidir. Masalan, "Matematika" fanida raqamlar bilan ishlaydilar, "Tasviriy san'at" da tasvirlar bilan ishlaydi, "Texnologiya" darslarida asosan amaliy ishlar, buyumlar yasash bilan shug'ullanadilar. Bu fanlarda ham fikrlar manlar orqali ifodalanishi mumkin, faqat ularning negizida matn emas, bajariladigan amaliy ishlar, misol va masalalar asosiy o'rinni egallaydi. "O'qish savodxonligi" darslarida esa badiiy asarlar bo'lib, asosan, e'tibor berilgan matn tahliliga qaratilgan bo'ladi. Badiiy asar tarkibi ham so'zlardan tashkil topadi. O'quvchilar ular bilan tanishish davomida ana shu so'zlar mohiyati orqali fanni yoki ana shu badiiy asarning ma'nosini tushunib yetadilar. Ya'ni ona tilini yaxshi bilmay turib o'qishni yaxshi bila olmaydilar. Ona tilini yaxshi tushunmas ekan, asarlarni ham tushuna olmaydi degan xulosalarga kelishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan, vaqti kelganda hatto "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" darslari bitta darslik sifatida ishlab chiqilib, sinovdan o'tkazilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Quyida ushbu fanlarga oid integratsiyalarni ko'rib chiqishimiz mumkin.



“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining bir integratsiyasini 3-sinf IV qismda uchratishimiz mumkin. Fe‘l so‘z turkumiga oid mavzulardan biri “Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar” deb nomlanib, to‘liqligicha “O‘qish savodxonligi” darsligi bilan ishlashga qaratilgan. Bu darsda o‘quvchilar 87-88-89-mashqlarni bajarish davomida bevosita “O‘qish savodxonligi” darsligiga murojaat qiladilar. Endi ushbu mashqlarning integratsiyaviy tahliliga o‘tamiz:

87-mashqda o‘quvchilarga “O‘qish savodxonligi” darsligidagi “Bilasizmi, bolalar?” she‘ri yuzasidan she‘riy tahlil o‘tkazish; she‘rdagi bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni topish; she‘rni ko‘chirib yozish topshirig‘i beriladi.

Darslikka murojaat qilamiz va she‘rni esga olamiz.

Bilasizmi, bolalar?

Tolib Yo‘ldosh

Zo‘ravon kim, qo‘rqoq kim,

Bilasizmi, bolalar?

Bularning har ikkisi -

Qo‘rqoq ko‘zli bolalar....

She‘rda berilgan bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarga namuna:

Bo‘lishli fe‘llar: kel, qo‘y, tutadi, kutadi, hurmatlar.

Bo‘lishsiz fe‘llarga misollar: ushlamas, qaramay, xushlamas.

88-mashqda ham “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan “Kapalak” hikoyasidagi fe‘llarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirish topshirig‘i beriladi.

Avval “Kapalak” matni bilan tanishadilar.

Matnda qora harflar bilan fe‘llar va ular bog‘lanadigan so‘zlar tahlili amalga oshirilgan. Bu so‘zlarni topish jarayonida o‘quvchilar “O‘qish savodxonligi” fanida o‘tilgan mavzuni yodga olish bilan birga qiziqarli tarzda “Ona tili” fanida o‘tilgan mavzuga doir mashqlarni bajaradilar.

NATIJALAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlari o‘rtasidagi integratsiyaviy yondashuvning fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, integratsiya asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar mavzuni ancha faol, ongli va kontekstual tarzda o‘zlashtiradilar. Xususan, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni o‘rganishda o‘quvchilarning matn bilan ishlash jarayoni bilimlarni mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi.

87-88-89-mashqlarning tahlili shuni tasdiqladiki, fe‘llarni real matn tarkibida izlash va tahlil qilish o‘quvchilarning grammatik sezgirlikini oshiradi. “Bilasizmi, bolalar?” she‘ri hamda “Kapalak” hikoyasi asosida olib borilgan topshiriqlarda o‘quvchilar fe‘llarni mustaqil aniqlash, ularni bo‘lishli-bo‘lishsiz ko‘rinishda tasniflash, matn mazmuni bilan bog‘lash kabi ko‘nikmalarni egalladilar. Bu esa integrativ yondashuvning amaliy jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlil shuningdek o‘quvchilarning matn asosida grammatik birliklarni idrok etish jarayonida mazmuniy bog‘lanishlarni chuqurroq anglashi, fe‘lning nutqdagi vazifasini



to'g'ri tushunishi va ularni kontekstga mos qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirganini ko'rsatdi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar faqat grammatik formani emas, balki fe'lning semantik vazifasini ham tushunishga harakat qildilar. Bu holat fe'lni kontekstsiz o'rgatishga nisbatan yuksak natija berdi.

Integrativ mashqlar natijasida o'quvchilarda quyidagi o'sish dinamikasi kuzatiladi:

1. Fe'llarni to'g'ri aniqlash ko'nikmasi oshadi
2. Bo'lishli-bo'lishsiz fe'llarni farqlashdagi xatolar kamayadi
3. Matnni tahlil qilishda mustaqillik va faollik kuchayadi
4. Ona tili va o'qish savodxonligi fanlari o'rtasidagi mazmuniy bog'lanishlar aniqroq anglanadi
5. Nutqiy kompetensiya va fikrni aniq ifodalash darajasi oshadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fe'l so'z turkumini boshqa fan mazmuni bilan uyg'un holda o'rgatish o'quvchilar tomonidan mavzuning ongli, chuqur va amaliy o'zlashtirilishiga olib keladi. O'quvchilar mavzuni izolyatsiya qilingan grammatik qoidalar shaklida emas, balki mazmuniy kontekstda idrok etadilar. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablariga to'liq mos keladi.

Shuningdek, integratsiyalashgan topshiriqlar o'quvchilarda motivatsiyani oshirgani, dars jarayoni esa ular uchun qiziqarli va mazmunli kechgani kuzatiladi. Bu jihat ta'lim sifatini oshirishda integratsiyaning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaviy yondashuv ona tili ta'limi, xususan fe'l so'z turkumini o'rgatishda yuqori samaradorlikka ega metodlardan biri hisoblanadi. Integratsiya o'quvchilarda grammatika bilimlarini mazmuniy kontekstda o'zlashtirish, tahliliy fikrlash, nutqni mantiqiy qurish va o'rgangan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqot davomida "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" fanlari o'rtasidagi uzviy mazmuniy bog'liqlik, ayniqsa, bo'lishli-bo'lishsiz fe'llarni o'qitish jarayonida o'zining amaliy samaradorligi bilan ajralib turdi.

3-sinf darsligida keltirilgan 87-88-89-mashqlar tahlilidagi fe'lni matn asosida o'rgatish o'quvchilarda faqat grammatik shaklni emas, balki fe'lning semantik vazifasini, kontekstdagi ma'nosini va nutqdagi rolini chuqurroq anglashga yordam beradi. Matndan fe'llarni topish, ularni tasniflash, mazmun bilan bog'lash kabi topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va grammatik sezgirligini kuchaytiradi. Xususan, "Bilasizmi, bolalar?" she'ri va "Kapalak" hikoyasi bilan ishlash natijasida o'quvchilar fe'llarni to'g'ri aniqlash, bo'lishli va bo'lishsiz turlarini farqlash hamda ularning nutqiy vazifasini izohlashda aniq o'sish ko'rsatdi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, kuzatish orqali xulosa chiqarishga, fanlararo bog'lanishlarning mohiyatini anglashga undaydi. Fe'l so'z turkumini matematika, tabiatshunoslik yoki tarbiya fanlari bilan bog'lab o'rganish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishi, real hayotiy



hodisalarni til orqali tasvirlash qobiliyatini rivojlantirishi aniqlandi. Bu esa fe'lni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki harakat va jarayonlarni ifodalovchi universal til vositasi sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimova M., Yo'ldoshev A. Ona tili va o'qish savodxonligi: Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti, 2019.
2. Baynazarova D. D, Toirova M.E. . 4-sinf Ona tili: – T.: Novda edutainmet nashriyoti, 2023. – 88 b
3. Kuranov Saydullo. 2-sinf Ona tili: – T.: Novda edutainmet nashriyoti, 2023. – 45 b
4. Toirova M.E. 3-sinf O'qish savodxonligi: – T.: Novda edutainmet nashriyoti, 2023. – 82 b
5. Toirova M.E. 4-sinf O'qish savodxonligi: – T.: Novda edutainmet nashriyoti, 2023. – 80 b
6. Usmanova O. V, Risjukova R. V. 3-sinf Tarbiya: Darslik. – T.: Novda edutainmet nashriyoti, 2023. – 103 b
7. Matchonov, S., Bakiyeva, H., Gulamova, X., Yuldosheva, Sh., Xolboyeva, G. (2021). Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi [Darslik]. Ishonchli hamkor.
8. Pedagogika.uz: <http://pedagogika.uz/>
9. Toshkent tibbiyot akademiyasi: <https://tma.uz/>
10. O'zbekiston Milliy Universiteti: <http://www.nuu.uz/>
11. Academia.edu: <https://www.academia.edu/>